

## TASHQI SAVDO AYLANMASI


(2020-yil yanvar-fevral\*)

2020-yil yanvar-fevral oylarida, viloyatda tashqi savdo aylanmasi 59770,4 ming AQSh dollarini tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 87,0 % ni tashkil etdi.

Shu jumladan, eksport hajmi 16772,8 ming AQSh dollarini tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 126,1 % ni tashkil qildi. Import hajmi 42997,6 ming AQSh dollarini tashkil etib, o'sish sur'ati 77,7 % ni tashkil etdi.

Tashqi savdo saldosi minus 26224,8 ming AQSh dollarini tashkil qildi.


### Viloyatning tashqi savdo aylanmasi (ming AQSh dollari)



● 2019 yil yanvar-fevral   ● 2020 yil yanvar-fevral

\* dastlabki ma'lumot


## Viloyatning tashqi savdo aylanmasi Eksport va import (ming AQSh dollari)



Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning tashqi savdo salohiyati oshib bormoqda.

Viloyatimizning tashqi savdo aylanmasi 2020-yil yanvar-fevral oylarida 59770,4 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Eksport aylanmasi 16772,8 ming AQSH dollar, import aylanmasi 42997,6 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

## Tashqi savdo aylanmasi tarkibi (*MDH va boshqa xorijiy davlatlar hajmi va ulushi, ming AQSH dollarida*)




Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2020-yil yanvar-fevral oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 95,4 % ni taskil etdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyatdagi tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 80,0 % ni taskil etdi.

## Eksport va import tarkibi

(MDH va boshqa xorijiy davlatlar ulushi, foizda)




2020-yil yanvar-fevral oylarida viloyatimizda MDH davlatlarining eksportdagi ulushi 48,5 % ni, importdagi ulushi 21,4 % ni tashkil qildi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyatimiz eksportidagi ulushi 51,5 % ni, importidagi ulushi 78,6 % ni tashkil qildi.


### Eksport va import tarkibi

*(MDH va boshqa xorijiy davlatlar bo'yicha hajmi, ming AQSH dollarda)*

#### Eksport




#### Import



2020-yil yanvar-fevral oylarida eksportda MDH davlatlari hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 124,6 % ga, boshqa xorijiy davlatlar hajmi 127,6 % ga oshgan.

Importda MDH davlatlar hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 79,0 % ni, boshqa xorijiy davlatlar hajmi 77,3 % ni tashkil etdi.


## MDH davlatlariga eksportning tarkibi (foizda)



Viloyatimizdan 2020-yil yanvar-fevral oylarida eng ko'p eksport hajmi MDH davlatlaridan Rossiya federatsiyasiga (5099,6 ming AQSH dollar) amalga oshirilgan.

Shuningdek, eng kam miqdordagi eksport hajmi Ozarbayjon Respublikasiga (12,5 ming AQSH dollar) amalga oshirilgan.


MDH davlatlaridan importi tarkibi  
(foizda)



Viloyatimizga 2020-yil yanvar-fevral oyida MDH davlatlari tarkibidan eng yuqori import hajmi Rossiya federatsiyasidan (8250,3 ming AQSH dollari) amalga oshirilgan.

Shuningdek, eng kam import hajmi Ukraina Respublikasidan (38,0 ming AQSH dollari) amalga oshirilgan.


## Eksportda boshqa xorijiy davlatlarning ulushi (foizda)



Viloyatimizdan 2020-yil yanvar-fevral oyida eng ko'p ekport hajmi boshqa xorijiy davlatlardan Turkiya Respublikasiga (4537,1 ming AQSH dollarri) amalga oshirilgan.

Shuningdek, eng kam eksport hajmi Amerika Qo'shma Shtatlari (0,8 ming AQSH dollarri) to'g'ri kelmoqda.


## Importda boshqa xorijiy davlatlarning ulushi (foizda)



Viloyatimizga 2020-yil yanvar-fevral oylarida eng ko'p import hajmi boshqa xorijiy davlatlar tarkibidan Xitoy Xalq Demokratik Respublikasidan (19308,2 ming AQSH dollarri) amalga oshirilgan.

Shuningdek, eng kam import hajmi Ukraina Respublikasidan (0,1 ming AQSH dollarri) amalga oshirilganligini ko'rish mumkin.

**Tashqi savdo aylanmasi  
(ming AQSH dollarda)**




2020-yil yanvar-fevral oylarida viloyatda eng ko'p tashqi savdo aylanmasiga ega hudud Jizzax shahri (22618,7 ming AQSH dollari) hisoblanadi va bu hududda tashqi savdo hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,7 % ga oshdi.

Shuningdek, eng kam tashqi savdo aylanmasiga ega bo'lgan hudud Yangiobod tumani (321,9 ming AQSH dollari) hisoblanadi.

# JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


## Eksport

(ming AQSH dollarida)



## Import


(ming AQSH dollarida)



2020-yil yanvar-fevral oylarida viloyat jami eksport hajmida eng kam ulush Zafarobod tumaniga (61,4 ming AQSH dollari), eng katta ulush Jizzax shahriga (7633,1 ming AQSH dollari) to'g'ri keldi.


Viloyatda jami import hajmida eng kam ulush Do'stlik tumaniga (55,3 ming AQSH dollari), eng katta ulush Forish tumaniga (9458,5,4 ming AQSH dollari) to'g'ri keldi.

**Eksport qiluvchi korxonalar soni  
(Birlikda)**



2020-yil yanvar-fevral oylarida viloyat bo'yicha eksport qiluvchi korxonalar soni birgina Forish, Zafarobod, Zomin, Zarbdor tumanlarida kamayganligini, qolgan barcha hududlarda 2019-yilning shu davriga nisbatan ushbu ko'rsatkich ortganligini ko'rish mumkin.

**Import qiluvchi korxonalar soni  
(birlikda)**



2020-yil yanvar-fevral oylarida viloyat bo'yicha import qiluvchi korxonalar soni deyarli barcha hududlarda 2019-yilning shu davriga nisbatan kamayganligini kuzatish mumkin.



## JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Yurtimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida mamlakatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi viloyatimiz maxsulotlarini tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi boshlig'i**  
**Murodulla Ibragimov**

*tel: + 99871 230-83-45*